Ro'ziboyev Oybek Baxromovich	
KICHIK BIZNESNING HUDUDIIY ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRI	1367
Qulmatov Alimjan Abdulloyevich	
INDUSTRIYA 4.0 SHAROITIDA KASBLAR TARKIBI TUZILMASI VA KOMPETENSIYALAR TRANSFORMATSIYASI	1371
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA (E-ID) TIZIMINING G'AZNACHILIK OPERATSIYALARIDA QO'LLANISH ISTIQBOLLARI	1375
Raximov Shaxzod Maxsudjanovich	
IQTISODIYOTNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARINING INVESTITION FAOLIYATINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH	1380
Kasimova Nozima Omilovna	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE EFFECTIVE PERFORMANCE OF AN INDUSTRIAL ENTERPRISE IN THE CONTEXT OF INDUSTRY 4.0	1384
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
TEACHING PROGRAMMING COLLABORATIVELY THROUGH GOOGLE COLAB AND GITHUB INTEGRATION	1388
Saidova Difuza Ergashovna	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	1392
Djumayev Zayniddin Axmedovich	



ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА И КЛЮЧЕВЫЕ ОРИЕНТИРЫ	1397
Киличева Феруза Бешимовна	
ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ НОРМ О СОБСТВЕННОСТИ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СВОБОДЕ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА	1401
Абдуллаева Мавлюда Садыковна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI INNOVATSION IQTISODIYOTDA QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI.....	1407
Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich	
KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI TANLASH	1414
Yoqubjonova Dildora Timur qizi	
TURISTIK XIZMATLAR BOZORINING XUSUSIYATLARI VA BRENDLASH IMKONIYATLARI	1420
Yusupova Moxinur Farxod qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY AKTIVLARNI BOSHQARISH.....	1428
Meliboyev Ibroxim Mavlon o'g'li	
SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTONGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI.....	1432
Kodirov Aqliddin Hakim o'g'li	
AVTOMOBIL SAVDOSIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARINING QO'LLANILISHI	1437
Adamboyev Abror Akrom o'g'li, Akramov T.A.	
CHARM-POYABZAL KORXONALARIDA RESURSLARDAN MUQOBIL FOYDALANISH SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH	1443
Otaniyozov Orifjon Otaxonovich	
BANK KAPITALI YETARLILIGI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	1449
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA RESURS TANQISLIGINING OLDINI OLISH MASALALARI	1454
Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi	
THE IMPACT OF DIGITAL PAYMENT SYSTEMS DEVELOPMENT ON THE BANKING SECTOR: A COMPARATIVE ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES	1459
Aziza Farmonovna Ergasheva, Rustam Olimjonovich Oltinov	
ICHKI AUDIT VA UNING KORXONA NAZORAT TIZIMIDAGI O'RNI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1472
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RISK TURLARI VA KELIB CHIQISH OMILLARI	1477
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	
O'ZBEKISTONDA TURISTLARGA OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1483
Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING SAMARALI YO'LLARI.....	1487
Adilov Mirkomil Miralimovich	
BUDJET JARAYONIDA OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINING AMALDAGI HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	1494
Shernayev Akbar Aqmirzayevich	
KICHIK TADBIRKORLIK LOYIHALARINI MOLIVALASHTIRISHDA BANK KREDITLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	1499
Norqobilova Nargiza Abdigodirovna	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ISHTIROKI VA ULARDA MARKETING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH	1504
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
МАКРОЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОПТИМИЗАЦИИ НАЛОГОВЫХ ПОСТУПЛЕНИЙ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ.....	1509
Муталова Дилором Махамаджановна, Хакимова Ситора Ильёсжон кизи	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA MEXANIZMLARI.....	1515
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
INNOVATSION FAOLIYATNI RAG‘BATLANTIRISHDA DAVLATNING O‘RNI.....	1518
Saitkamolov Muxammadxo‘ja Sobirxo‘ja o‘g‘li	
SOLIQ MA‘MURIYATCHILIGINING MOHIYATI VA UNING TADBIRKORLIK MUHITIDAGI O‘RNI.....	1521
Xurramov Azizbek Muxiddin o‘g‘li	
DETERMINATION OF SEED DAMAGE IN THE PNEUMATIC TRANSPORT SYSTEM BY CONDUCTING EXPERIMENTS	1527
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	
GEOTAHLILY YONDASHUV ASOSIDA DEHQON XO‘JALIKLARINING YER BILAN TA‘MINLANGANLIGINI BAHOLASH.....	1531
Axmatov Abutolibxon Ochilxon o‘g‘li	
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING G‘AZNA IJROSIDA BIG DATA TAHLILIDAN FOYDALANISHNING SAMARASI.....	1535
Atajanov Murodbek Bekberganovich	
РОЛЬ И РАЗВИТИЕ КИБЕРПРАВА В ФИНТЕХ-ПРОЕКТАХ: ПРАВОВЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРИОРИТЕТЫ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	1539
Мирзаев Шерзод Махматкулович	
KAMBAG‘ALLIK VA UNI TADRIJIY-NAZARIY KONSEPSIYALARI.....	1547
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	



KAMBAG'ALLIK VA UNI TADRIJIY-NAZARIY KONSEPSIYALARI

Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich

NamDTU, "Buxgalteriya hisobi" kafedrası dotsenti, PhD

Annotatsiya. Maqolada kambag'allik mohiyati, turlari va uni tadrijiy-nazariy konsepsiyalari bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlar o'rganilib, tahlil qilinadi. Shuningdek, kambag'al aholi qatlamining kamayishi bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan. Tadqiqotda kambag'allikning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari, uning daromad tengsizligi, iqtisodiy o'sish va ish bilan bandlikka ta'siri chuqur tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Kambag'allik mohiyati, aholi daromadining tengsizligi, iqtisodiy o'sish, kambag'allikning mutlaq mezon, xorijiy va mahalliy olimlarning asarlarida kambag'allik, kambag'allikni qisqartirish, aholini ish bilan band etish.

Abstract. The article presents a study and analysis of existing scientific research on the nature, types, and theoretical concepts of poverty. Proposals and recommendations for reducing the number of poor people are also provided. The research covers the economic and social aspects of poverty, income inequality, economic growth, and the impact of employment on poverty reduction.

Key words: The nature of poverty, income inequality, economic growth, absolute poverty criterion, poverty in the works of foreign and domestic scientists, poverty reduction, employment.

Аннотация. В статье проведено исследование и анализ существующих научных исследований сущности, видов и теоретических концепций бедности. Также представлены предложения и рекомендации по сокращению численности бедного населения. Исследование охватывает экономические и социальные аспекты бедности, неравенства доходов, экономического роста и влияния занятости на снижение уровня бедности.

Ключевые слова: Сущность бедности, неравенство доходов, экономический рост, абсолютный критерий бедности, бедность в трудах зарубежных и отечественных ученых, сокращение бедности, занятость населения.

KIRISH

Kambag'allik insoniyat tarixida jamiyat a'zolarining ijtimoiy holatini o'zida aks ettiruvchi sifat ko'rsatkichi bo'lib kelgan. Shu bois, mavjud nazariy tushunchalar kambag'allikni alohida iqtisodiy kategoriya sifatida tavsiflaydi. Kambag'allikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari jamiyat taraqqiyotiga o'zining salbiy tomonlari bilan ta'sir etadi. Kambag'allik ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda dolzarb muammo bo'lib, uning barqaror ijtimoiy tuzilma, iqtisodiy o'sish va xalqning farovonligi bilan bevosita bog'liqligi ko'plab tadqiqotlarda ta'kidlangan.

Kambag'allik – bu shaxs yoki ijtimoiy guruhning iqtisodiy holatining o'ziga xos xususiyati bo'lib, obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra inson hayot kechirishi, mehnat qobiliyatini saqlab qolishi hamda nasl berishida zarur bo'lgan minimal ehtiyojlarning ma'lum bir qismini talab doirasida qondira olmaslikni anglatadi. Bu holat nafaqat iqtisodiy zaiflikni, balki ijtimoiy izolyatsiya, ta'lim va tibbiyotga kirishning cheklanganligi, shuningdek, fuqarolik huquqlari va imkoniyatlarining yo'qligini ham o'z ichiga oladi. Kambag'allik jamiyatning bir qismi bo'lgan shaxslar yoki oilalarning hayotini jiddiy ravishda cheklaydi, bu esa ularning iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish imkoniyatlarini kamaytiradi.

Ta'kidlanganidek, kambag'allik jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishida bir qator salbiy jarayonlarni yuzaga keltiradi. Bunday holat, nafaqat individual, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishini cheklashga olib kelishi mumkin. Kambag'allikning keng tarqalganligi, jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi, fuqarolar o'rtasida g'amxo'rlik va o'zaro yordamni kamaytiradi, iqtisodiy nohaqlikni yanada kuchaytiradi. Shuningdek, kambag'allik, odamlarning ishlash va ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish imkoniyatlarini cheklab, butun jamiyatda mehnat bozorining noteng taqsimlanishiga sabab bo'ladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kambag'allik mohiyati, turlari va uni tadrijiy-nazariy konsepsiyalari hamda kambag'allikni qisqartirish muammolari yuzasidan xorijlik iqtisodchi olimlar A. Smit, D. Rikardo, A. Ditont, P. A. Samuelson, V. D. Nordxaus, Ch. But, F. Fon Xayek, P. J. Prudon va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

MDH mamlakatlarida, A. A. Savichev, V. A. Rojkovskiy, A. V. Soy, Ye. L. Aleksandrov, O. E. Aleksandrova, Ye. S. Balabanova, Ye. I. Beglova, L. A. Elovikov, I. V. Shugaeva, A. A. Razumov, O. V. Selivanova, L. A. Zubkevich kabi iqtisodchilarning ilmiy asarlarida kambag'allikni qisqartirishda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari o'z aksini topgan.

O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlikning tutgan o'rnining umumiy jihatlari S. S. G'ulomov, Yo. Abdullayev, B. Y. Xodiyev, M. S. Qosimova, S. K. Salayev, U. V. Gafurov, Sh. I. Mustafaqulov, M. Z. Muxiddinova, M. X. G'aniyev, B. Pardayeva va boshqalarning ishlarida ilmiy asoslab berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kambag'allik mohiyati, turlari va uni tadrijiy-nazariy konsepsiyalari bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, tahlil qilish va taqqoslashda mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraktsiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduktsiya usullaridan keng foydalanilgan. Ushbu usullar yordamida kambag'allikning turli tomonlari va uning jamiyatga ta'siri chuqur tahlil qilindi, shuningdek, uning qisqartirish bo'yicha samarali strategiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot jarayonida statistik manbalar, mazkur mavzuga oid milliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, rasmiy hisobotlar, xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, BMT, XMT va boshqalar) tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlardan foydalanildi. Shuningdek, kambag'allikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholashda taqqoslama tahlil, tarixiy yondashuv va tizimli yondashuv kabi uslublar qo'llanildi. Bu esa masalani turli omillar kesimida solishtirish va keng qamrovli ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kambag'allik dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida mavjud. Ularning rivojlanish darajasiga va olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatiga hamohang holda kambag'allik turli shakl va ko'rinishlarga ega bo'ladi. Boshqacha aytganda, turli davlatlarda aholi daromadlari har xil nisbatda bo'lganda tengsizlik paydo bo'ladi.

Taniqli iqtisodchilar Pol A. Samuelson va Vilyam D. Nordxaus o'zlarining darsligida "kambag'allik" so'zi turli odamlar uchun turli xil ma'nolarga ega ekanligini ta'kidlab, shubhasiz, kambag'allik – bu odamlar kam daromad oladigan holat, ammo kambag'al bo'lganlar hamda bo'lmaganlar o'rtasiga chiziqli tortib ajratib qo'yish juda qiyin ekanligiga e'tibor berganlar.

Xususan, aholi daromadining tengsizligi va kambag'allik bilan iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik masalalari A. Smit, D. Rikardo, R. Solou, A. Sen, A. Ditont kabi ko'plab mumtoz klassik hamda neoklassik iqtisodchilar ilmiy asarlarida o'rganilgan. Shuningdek, Nobel mukofoti laureatlari tomonidan tadqiqot obyektiga doir nazariy va empirik tadqiqotlar o'tkazilgan. Ular "yalpi ichki iste'mol, texnologik rivojlanish, mehnat unumdorligi, aholi salomatligi, soliq bazasi va boshqa omillar tahlili asosida, kambag'allik kam bo'lgan jamiyatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqoriroq bo'lishini" ilmiy o'rganib, nazariy jihatdan isbotlashgan.

Kambag'allikni o'rganishga ilmiy yondashuv an'anaviy jamiyat sanoatlashgan jamiyat bilan almashganda paydo bo'ladi. Shuningdek, kambag'allik sanoatlashtirish va ijtimoiy islohotlar jarayonlari bilan bog'liq muammoga aylanadi.

"Kambag'allik" tushunchasining talqini turli xil o'zgarishlarga duch keldi. Uning tabiati va sabablari, shubhasiz, har doim olimlarning diqqat markazidan joy egallab kelgan. Sotsiologlar ko'pincha kambag'allikni jamiyat ijtimoiy hayotining tabiiy hodisasi deb qaraydilar. Kambag'allik ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liqdir, shuning uchun uning namoyon bo'lish shakllari vaqt va makonda farqlanadi. Kambag'allikning paydo bo'lishi jarayonlari o'ziga xos tarixni yaratgan.

Kambag'allik qadim zamonlardan mavjud va hozirgi davrda jahon mamlakatlarining muayyan aholi qatlamini qamrab olgan. Aniqroq aytganda, kambag'allik turli davlatlarda turlicha darajalarda namoyon bo'lib, bugungi kunda ham keng tarqalgan.

Iqtisodiy ta'limotlar tarixida kambag'allik bir qator iqtisodchi olimlarning e'tiborini tortdi. Osiyo, antik va feodal jamiyatlarida boylar va kambag'allarga bo'linish insonning shaxsiy qobiliyatiga unchalik bog'liq bo'lmagan: ehtiyojlar darajasi va ularni qondirishlik shaxsning sinfiy va huquqiy holatiga bog'liq edi. Chunki o'sha davrlarda turli ijtimoiy guruhlar turli xil turmush tarziga ega bo'lgan. Shuning uchun quyi tabaqalarning yuqori qatlamlarning obro'li turmush tarziga rioya qilishlari mumkin emasligi odatiy hayot meyorlari sifatida qabul qilingan.



Ko'rinib turibdiki, kambag'allik muammolarini hal qilishga qadimdan sotsiologlar, iqtisodchilar va faylasuflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tufayli bebaho hissa qo'shib kelganlar. Dastlab qadimgi faylasuflar: Konfusi, Ksenofon, Platon, Aristotel asarlarida daromadlarni notekis taqsimlash muammosi o'rganilgan. Ular jamiyatda barqarorlikni saqlash uchun sinflarga bo'linish va imtiyozlarni taqsimlashda adolat tamoyiliga asoslanish kerak, degan fikrni bildirdilar. Masalan, qadimgi Yunoniston faylasuflari ijtimoiy tabaqalanish modelini birinchi bo'lib tan olishga harakat qildilar. Jumladan, "Platon o'zining 'Davlat' (miloddan avvalgi 428-347 y.y.) asarida jamiyatning ikki qismdan iborat tabaqalanishini ko'rsatadi. Bir qismi boylardan, ikkinchi qismi kambag'allardan iborat bo'lib, ular birga yashab turib, bir-birlariga qarshi fitna uyushtiradilar", degan tasavvurlar ommalashgan.

O'z davrida Aristotel ijtimoiy tengsizlik muammosini ko'rib chiqib, o'zining "Siyosat" nomli asarida odamlarning tabaqalarga ajralishining asosiy sababi xususiy mulk instituti ekanligini va faqat uni bekor qilish orqaligina nisbiy tenglikka erishish mumkinligini ta'kidladi. Aristotel, shuningdek, jamiyatni faqat o'rta sinf shakllantira olishini aytadi. Uning fikricha, jamiyatning o'rta sinfi a'zolari ijtimoiy muvozanatni ta'minlashning oqilona tamoyiliga amal qilishlari mumkin.

Gegel kambag'allik va boylikning turli xususiyatlarini ochib berdi. Hegel, kambag'allik shaxsning va umuman jamiyatning ma'lum bir holati sifatida harakat qiladigan ijtimoiy hodisa tarzida ko'rib, "kambag'al sinf", "kambag'allik", "kambag'allashgan omma", "muhtoj" tushunchalarini ilgari surdi. Shuningdek, u kambag'allikning ikki tomonini ajratib ko'rsatdi. Birinchisi obyektiv bo'lib, u mavjud sharoitlarga bog'liq bo'lsa, ikkinchisi subyektiv, ya'ni axloqiy subyekt sohasini qamrab oladi.

Fransuz olimi P. J. Prudon (1809-1865) tomonidan kambag'allik to'g'risida qiziqarli fikrlar bildirgan. Uning fikricha, kambag'allik, ijtimoiy ne'mat bo'lib, uning ikki turi bir-biridan farqlanadi. U birinchisini qiyosiy yoki nisbiy, ikkinchisini esa mutlaq deb hisoblagan. Nisbiy kambag'allik ishlab chiqarish va iste'molning kengayishi natijasidir. U faqat mehnat unumdorligining doimiy o'sishiga kambag'allikni yengish uchun haqiqiy omil bo'la oladi, deb ta'kidlaydi. P. J. Prudon kambag'allikning ikkinchi turini jamiyatdagi taqsimotga oid munosabatlarni noto'g'ri ekanligi bilan asoslab berishga uringan. U "ne'matni" teng taqsimlash, ya'ni jamoat mol-mulklarini adolatli taqsimlash zarurligini ta'kidlaydi. Har bir moddiy ne'mat yaratuvchi o'z qobiliyatiga mutanosib ravishda ish haqini olish huquqiga ega bo'lishi lozim deydi. Shunga ko'ra, barcha ishlar faoliyat olib boruvchining qobiliyatidan kelib chiqqan holda mutanosib teng taqsimlanishi kerak. Ish beruvchilarning bu tamoyilga rioya qilmasa, u kambag'allikni yanada keskinlashuviga olib keladi.

Ch. But va S. Rauntri asarlari kambag'allik haqidagi bilimlar bo'yicha akademik tadqiqotlar uchun asos yaratdi va ko'plab mamlakatlar siyosatiga bevosita ta'sir etdi. Kambag'allik asosi shaxsning ijtimoiy hayotining mazmun-mohiyatini tavsiflovchi, ya'ni kiyim-kechak, oziq-ovqat, uy-joy kabi eng muhim ehtiyojlarini qondirish kabi ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi.

Ch. But kambag'allarni oila uchun haftasiga muntazam daromadga ega bo'lgan va etarli deb hisoblangan odamlar deb atagan. Kimning haftalik daromadi belgilangan meyordan kam bo'lsa, uning fikriga ko'ra, bu toifadagi odamlar juda kambag'allarga tegishli edi. Ch. But nuqtai nazaridan, "kambag'allar – bu ma'lum bir mamlakatda odatiy hayot standartlariga muvofiq ehtiyojlari qondirilmaganlar"dir. Ch. But "kambag'allik"ni tahlil qilib, uning haqiqiy mezonlarini aniqlashga harakat qildi. Uning ilmiy nuqtaiy-nazariga ko'ra, insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish va ma'lum turmush darajasini saqlab turish uchun daromad darajasini hisobga olish kerak. Ch. Butning tadqiqotlari natijalari kambag'allik va eng kichik ehtiyojlarni qondirish qobiliyati o'rtasidagi ma'lum nisbatni tasdiqlaydi.

Fransuz iqtisodchisi F. Le Pley kambag'allikning mutlaq mezon sifatida oila byudjeti asosida hisoblangan kambag'allikni tadqiqot obyekti sifatida olgan. Nazariyaning muhim tomoni insonning jismoniy yashashi uchun zarur bo'lgan moddiyliklar hisobga olinadi, hamda xarajatlarning talaygina qismi oziq-ovqatga to'g'ri keldi. Turli ijtimoiy ehtiyojlar oila byudjetidagi xarajatlarning eng kichik qismini egalladi.

Kapitalistik jamiyat vujudga kelishi bilan barcha fuqarolarning huquqiy tengligi va haqiqiy kuchli iqtisodiy tengsizlik o'rtasida qarama-qarshilik jiddiylashdi. E'tiborli jihati kapitalizmning ilk davridan boshlab ba'zi bir jamiyat a'zolari o'zlarining qay darajada yashashi kabi hayot kechirishi mumkin emasligi ijtimoiy adolatsizlik sifatida qabul qilina boshlandi.

Neoliberalizm tarafdori F. fon Xayek "kambag'allik"ni o'rganar ekan, insoniyat jamiyati uchun bu hodisa muqarrar, shuning uchun u jamoat manfaati uchun foydali bo'lishi kerak, deb ta'kidladi. F. fon Xayek boshqa o'tmishdoshlardan farqli o'laroq kambag'allikka davlat ta'sirini cheklovchi chora-tadbirlar orqali bo'lishligini asoslab bergan va shaxsning tashqi omillar ta'sirida kambag'allikka uchrashi mumkinligini hisobga olmagan holda o'zining qashshoqligi uchun shaxsni javobgarlikka tortdi.

Ahamiyatli tomoni jamiyatni boshqaruvdagi ekstraktiv institutlarning rolini oshirib yuborishi, ya'ni keng aholi qatlamlarining davlat boshqaruvidan chetlashishining, qarorlarning faqat tor doirada (elita) tomonidan qabul qilinishi ularning manfaatiga ko'proq e'tibor berilgani mazkur mamlakatdan norozilik ildizlari ularning kambag'alligiga borib taqaladi.



Fikrimizcha, kambag'allik – inson yoki oilaning zarur va muhim ehtiyojlarini qondirishga imkon bermaydigan muhtojlik alomati bo'lib, hayotiy shart-sharoitlarning, vositalarning yetishmasligini anglatadi.

Kambag'allikka yetarli e'tibor berilmagani har bir jamiyatning eng keskin ijtimoiy muammolaridan biri hisoblanadi. Aslida mamlakatdagi "iqtisodiy maqsadlar iqtisodiy o'sishni quvvatlash, makroiqtisodiy muvozanatga erishish, investitsiya jarayonlari barqaror rivojlantirish bo'lsa, ijtimoiy maqsadlar birinchi o'rinda aholi bandligi, aholi daromadlari oshirilishi va kambag'allikning qisqartirilishidir."

Iqtisodiy adabiyotlarda kambag'allik tushunchasining yagona ta'rifi yo'q. Misol uchun, Jahon banki tadqiqotchilari kambag'allikni eng kam turmush darajasini saqlab qolishning imkoni yo'qligi deb bilishadi. O'z navbatida, britaniyalik iqtisodchi E.Tirlvollning ta'kidlashicha, kambag'allik nafaqat daromad va iste'mol darajasining pastligi, balki ko'pincha inson rivojlanishining past darajasi, birinchi navbatda, ta'lim olish (yoki uning etishmasligi) va sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatish imkoniyatining yo'qligidir. Bundan tashqari, E.Tirlvoll shuningdek, kambag'allar ko'pincha kuchsizlik, zaiflik va qo'rquv tuyg'usini his qilishlarini alohida e'tirof etadi. Chunki boy fuqarolarga qaraganda ko'proq xavf ostida va deyarli mumkin bo'lgan chegaralardan tashqarida yashaydilar.

Amerikalik iqtisodchilar M.P. Todaro va S.Smit o'z asarlarida kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan faol siyosatning ustuvor ahamiyatini qayta-qayta ta'kidlab, rivojlanayotgan davlatlarda bunday ijobiy faoliyat natijalari iqtisodiy o'sishni tezlashtirishi mumkinligini ta'kidlaganlar. Muhimi ular o'z g'oyalarini isbotlash uchun bir nechta dalillarni keltiradilar. Misol uchun, kambag'allar ko'pincha o'z farzandlariga kelajakda munosib va yuqori maoshli ish topishga yordam beradigan sifatli ta'lim bera olmaydilar. Shunday qilib, iqtisodchilar mamlakatdagi kambag'allik va tug'ilish darajasi o'rtasidagi chiziqli bog'liqlikni alohida qayd etadilar. M.P. Todaro va A.Smit shuningdek, hozirgi sharoitda kambag'al mamlakatlarning mutlaq ko'pchiligida, keng kambag'allik sharoitida aholining boy qatlamlari o'z jamg'armalari va mablag'larini ko'paytirishga intilmayotganligiga ham alohida to'xtalib o'tadilar. Chunki kambag'allik muammosini hal qilish uchun umuman olganda, ichki bozorda iste'molni kengaytirish, inson kapitali sifatini yaxshilash, kengaytirish va mamlakatda ishbilarmonlik faolligini oshirish zarur tadbirlardan hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda kambag'allik tushunchasining yagona ta'rifi yo'q. Misol uchun, Jahon Banki tadqiqotchilari kambag'allikni eng kam turmush darajasini saqlab qolishning imkoni yo'qligi deb bilishadi. O'z navbatida, britaniyalik iqtisodchi E. Tirlvollning ta'kidlashicha, kambag'allik nafaqat daromad va iste'mol darajasining pastligi, balki ko'pincha inson rivojlanishining past darajasi, birinchi navbatda, ta'lim olish (yoki uning yetishmasligi) va sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatish imkoniyatining yo'qligidir. Bundan tashqari, E. Tirlvoll shuningdek, kambag'allar ko'pincha kuchsizlik, zaiflik va qo'rquv tuyg'usini his qilishlarini alohida e'tirof etadi. Chunki boy fuqarolarga qaraganda ko'proq xavf ostida va deyarli mumkin bo'lgan chegaralardan tashqarida yashaydilar.

Amerikalik iqtisodchilar M. P. Todaro va S. Smit o'z asarlarida kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan faol siyosatning ustuvor ahamiyatini qayta-qayta ta'kidlab, rivojlanayotgan davlatlarda bunday ijobiy faoliyat natijalari iqtisodiy o'sishni tezlashtirishi mumkinligini ta'kidlaganlar. Muhimi, ular o'z g'oyalarini isbotlash uchun bir nechta dalillarni keltiradilar. Misol uchun, kambag'allar ko'pincha o'z farzandlariga kelajakda munosib va yuqori maoshli ish topishga yordam beradigan sifatli ta'lim bera olmaydilar. Shunday qilib, iqtisodchilar mamlakatdagi kambag'allik va tug'ilish darajasi o'rtasidagi chiziqli bog'liqlikni alohida qayd etadilar. M. P. Todaro va S. Smit shuningdek, hozirgi sharoitda kambag'al mamlakatlarning mutlaq ko'pchiligida, keng kambag'allik sharoitida aholining boy qatlamlari o'z jamg'armalari va mablag'larini ko'paytirishga intilmayotganligiga ham alohida to'xtalib o'tadilar. Chunki kambag'allik muammosini hal qilish uchun umuman olganda, ichki bozorda iste'molni kengaytirish, inson kapitali sifatini yaxshilash, kengaytirish va mamlakatda ishbilarmonlik faolligini oshirish zarur tadbirlardan hisoblanadi.

Kambag'allik va uning ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatidagi mohiyati, kelib chiqish sabablari siyosiy iqtisod klassiklari A. Smit, D. Rikardo va T. Maltus tomonidan o'rganilgan. O'sha paytda ustuvor bo'lgan ijtimoiy darvinistik model ruhida ular sanoat jamiyatida kambag'allikning paydo bo'lishini shaxsning mavjudlik uchun kurashda g'alaba qozona olmasligi bilan bog'ladilar. Shunisi e'tiborga loyiqki, kambag'allik shaxs kamolotida ijobiy rol o'ynaydi va u jamoat manfaati uchun zarurdir degan liberal g'oyalar keyingi davrda F. Xayek, A. Sen asarlarida davom ettirilgan. Kambag'allikni kamaytirishda davlat ishtirokini cheklashni taklif qilayotgan neoliberallardan farqli o'laroq, G'arb iqtisodiy tafakkurining boshqa sohalari vakillari – J. M. Keyns, J. Stiglits, P. Taunsend – davlatning kam ta'minlangan aholining kam ta'minlangan qatlamini qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat tomonidan samarali ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarurligiga e'tiborni qaratadilar.

P. Taunsend nisbiy kambag'allikka katta ahamiyat bergan. P. Taunsend tomonidan qo'llanilgan asosiy dalil mutlaq kambag'allikni bartaraf etish Angliyadagi kambag'allarga ijtimoiy yordam ko'rsatish bilan sodir bo'lishini anglatardi, ularning turmush darajasi jamiyatdagi o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan ellikinci va oltmishinchi yillarda qirqinchi yillardagidan yaxshiroq emas edi. Boshqacha qilib aytganda, o'rta daromadlilik darajasidan orqada qolish avvalgidek saqlanib qolgan eng kambag'al odamlar – kambag'al deb tasniflanishi kerak. Nisbiy



yondashuv asosiy ehtiyojlar nima bo'lishi kerakligi haqida tasavvur beradi va shunga mos ravishda ularning o'ziga xos tarkibi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilaydi. Shunday qilib, rivojlangan mamlakatlarda kambag'allik yana paydo bo'la boshladi.

Nobel mukofoti laureati, amerikalik iqtisodchi J. Stiglitsning fikricha, "kambag'allik omil sifatida vertikal harakatchanlikning pasayishiga, ayniqsa, uzoq muddatli 'hissa qo'shadi' va butun aholining mehnat unumdorligini pasaytiradi". Ammo jahon hamjamiyatining ushbu muammoni hal qilish yo'llarini topishga qaratilgan say-harakatlari juda aniq, chunki davlatlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, xalqlarning birlashishi va farovonligi sharoitida yuz beradi. Bu esa hozirgi ishning vazifasini, ya'ni kambag'allikning oldini olish va ehtimol uni kamaytirish maqsadida kambag'allikka qarshi kurashish bo'yicha xorijiy va mahalliy tajribani o'rganishni oldindan belgilab beradi.

Rossiyada kambag'allik muammosi XX asrning so'nggi choragidan mahalliy iqtisodchilar tomonidan tobora keng o'rganila boshlandi. Transformatsion islohotlarning dastlabki bosqichida neoliberal islohotchilar bozor erkinliklari tarafdorlari bo'lgan holda, o'zlarining nazariy konstruksiyalarida mamlakat aholisining qashshoqlashuviga yo'l qo'ymaslik bo'yicha institusional chora-tadbirlarga unchalik katta ahamiyat bermadilar. O'z-o'zidan, noto'g'ri o'ylangan iqtisodiy islohotlar kam daromadli odamlarning keskin ko'payishiga olib keldi. Rossiyalik tadqiqotchilarning aksariyati O. Belokrilova, T. Zaslavskaya, N. Volgin, A. Maxmutov, N. Rimashevskaya kambag'allikning o'ziga xos xususiyatlari, uning turlari bilan bir qatorda, aholi daromadlarini oshirish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish tarafdorlari, eng zaif qatlamlarni ijtimoiy himoya qilish choralari bo'yicha takliflar kiritadilar.

Kambag'allik tushunchasini xorijiy va mahalliy olimlar o'z asarlarida turlicha izohlab, o'zlarining ilmiy yondashuvlariga asosida ta'riflar berishgan (1-jadval).

1-jadval. Xorijiy va mahalliy olimlarning asarlarida kambag'allik tushunchasining tavsiflanishi

	KAMBAG'ALLIK TUSHUNCHASI
Pyer-Jozef Prudon	"...sivilizatsiya holatida odam, o'z tanasini saqlab qolish va ruhini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan narsani mehnat bilan oladi – ko'p ham emas, kam ham emas. Bizning ishlab chiqarish va iste'molimizning bu qat'iy o'zaro cheklanishini, men kambag'allik deb atayman..." (Kambag'allik iqtisodiy tamoyil sifatida, 1908 y.)
Piter Taunsend	"Agar jismoniy shaxslar, oilalar va aholi qatlamlari, o'zlari yashaydigan jamiyatda keng tarqalgan ozuqalar turlariga, shuningdek, hayot, mehnat va dam olish sharoitlari bilan ta'minlash uchun etarli resurslarga ega bo'lmasalar, u holda ularni kambag'allik holatidadir, deb hisoblash mumkin. Ularning resurslari shaxs yoki oilaga qaraganda, o'rtacha hajmdan ancha past bo'lib, haqiqatda bunday jamiyat oddiy munosabatlardan, hayotiy an'analardan, faoliyatdan chetlatilgan hisoblanadi." (Buyuk Britaniyada kambag'allik, 1979 y.)
S. N. Bikova, V. P. Lyubin	"Kambag'allik – bu nisbiy tushuncha. Bu daromadning yo'qligi emas, balki jamiyatning boshqa a'zolari daromadlariga nisbatan daromad qiymatining etarli emasligidir." (Ruscha va italyancha kambag'allik, 1993 y.)
S. S. Yaroshenko	"Kambag'allik – bu inson, ijtimoiy guruhning, mamlakatning umumiy qabul qilingan yashash sharoitlarini saqlab qolish uchun zarur bo'lgan resurslarning yo'qligi yoki etishmasligi bilan ajralib turadigan holati." (Genderni istisno qilish rejimidagi kambag'allik, 2010)
Sh. I. Mustafaqulov	"Kambag'allik – turmush kechirish, mehnat layoqatini saqlab turish, avlodlar uzviyligini davom ettirish uchun zarur bo'lgan eng kam ehtiyojlarni qondirish imkoniyatiga ega bo'lmagan shaxs yoki ijtimoiy guruhlar iqtisodiy ahvolidan ko'rsatkichidir."
M. X. G'aniyev	"Kambag'allik – bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zgaruvchan daromadlar tengsizligi va ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy, ekologik, demografik jarayonlar bilan bog'langan munosabatlarning mahsuli bo'lib, insonlarning minimal iste'moli uchun hayotiy zarur ne'matlarning etarli bo'lmasligi."

Kambag'allik muammosiga zamonaviy qarashlar tizimining asoschilaridan biri haqli ravishda mashhur ingliz sotsiologi S. Rountri bo'lib, uning XIX-XX asrlarda olib borgan ishlari ushbu ko'pqirrali hodisani keyinchalik o'rganib, uning asosini yaratdi. XX-asrda kambag'allik muammosi A. Atkinson, M. Orshanskiy, P. Taunsend, D. Rum, A. Sen va boshqa mualliflarning asarlarida rivojlantirildi. Ushbu tadqiqotlar, kambag'allikni asosiy ehtiyojlar asosida o'rganish, kambag'allikni yashash uchun zarur resurslarning yetishmasligi sifatida talqin etish, kambag'allik chegarasini aniqlash va boshqa bir qator asosiy tushunchalar tizimini shakllantirdi. Bu mutaxassislar kambag'allikning bir qator ko'rsatkichlarini taklif etdilar va amalda sinab ko'rdilar.



Amerikalik antropolog, “kambag‘allik madaniyati” konsepsiyasini yaratuvchisi O. Lyuisning fikricha, “kambag‘allik – bu submadaniyat bo‘lib, uning qadriyatlari, meyorlari va qoidalari ma‘lum jamiyat madaniyatidan farq qiladi. Bu avloddan-avlodga o‘tadigan surunkali holat, shuning uchun odamlar kambag‘allikni yengish imkoniyatidan mahrum. Kambag‘allik submadaniyati umidsizlik va nochorlik holatining mahsulidir.”

Rossiyalik iqtisodchi Ye. Y. Ageyev yondashuvlariga ko‘ra, “kambag‘allar hech qanday majburiyatni o‘z zimmlariga olmaydilar, ular asosan jamiyatning beg‘araz yordamiga tayanadilar.” Ye. S. Balabanova esa «kambag‘allikning asosiy tashqi ifodalanishi (atributi) dunyoqarashdagi “qaramlikka yo‘nalganlik» bo‘lib, bunda “ijtimoiy omillar ijtimoiy-iqtisodiy qaramlik munosabatlari tomonga qaratilgan bo‘ladi.”

Iqtisodchilardan I. P. Kovaleva va S. A. Mixaylovskaya fikriga ko‘ra, “kambag‘allik deganda hayotni saqlab qolish uchun zarur bo‘lgan bir qator ehtiyojlarni qondira olmaydigan odam yoki odamlar guruhining iqtisodiy holati tushuniladi.” Rossiya Fanlar Akademiyasi sotsiologlarining rasmiy ma‘lumotlariga ko‘ra esa, kambag‘al odam – bu daromad darajasi unga ma‘lum miqdordagi fiziologik zarur hayotiy imtiyozlarga ega bo‘lishiga imkon bermaydigan, hayotning asosiy, noaniq sifatini saqlab qolish uchun minimal mahsulot va xizmatlarga ega bo‘lmagan shaxs. Bunday shaxs har qanday vaziyatlarda qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy. Bu qiyinchiliklardan insonning o‘zi qutulishni xohlaydi, ammo imkoni bo‘lmaydi. Bunday qiyinchiliklardan qutulishning birdan-bir imkoni – savodli bo‘lish, sabrli bo‘lish va optimistchasi fikrlashdir.

O‘zbek iqtisodchilaridan Q. X. Abdurahmonov, Sh. R. Xolmo‘minov, R. F. Djumanova, N. M. Ibragimova, M. Z. Muxitdinova, B. Pardayeva, K. S. Saidov, P. Z. Xashimov, Sh. I. Mustafaqulov kabilarning tadqiqotlari va ilmiy izlanishlarida kambag‘allikka oid masalalar alohida muammo sifatida chuqur o‘rganishga harakat qilingan. Xususan, K. S. Saidov, M. M. Muxammedov kabilari “kambag‘allik toifasi – odamlarning moddiy ta‘minlanmaganligining o‘ziga xos holati bo‘lib, bunda bir kishi yoki oilaning daromadi hayot faoliyati uchun sotsial – zaruriy iste‘mol darajasini ta‘minlashga imkon bermaydi”, deb qayd etadilar. Ularning fikricha, kambag‘allik har qanday iqtisodiy tizim uchun xos bo‘lib, u keskinlashib borishi mumkin. Kambag‘allikning keskinlashuvi ishlab chiqarilgan mahsulot va jamg‘arilgan boylik hajmiga, mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatiga, xalqning farovonligiga, taqsimot usullariga jiddiy salbiy ta‘sirini ko‘rsatadi.

Iqtisodchi Sh. I. Mustafaqulov kambag‘allikka nisbatan o‘z yondashuvini bayon etib, “kambag‘allik – turmush kechirish, mehnat layoqatini saqlab turish, avlodlar uzviyligini davom ettirish uchun zarur bo‘lgan eng kam ehtiyojlarni qondirish imkoniyatiga ega bo‘lmagan shaxs yoki ijtimoiy guruhlar iqtisodiy ahvolidan ko‘rsatkichidir¹”, deb ta‘kidlab o‘tadi. Kambag‘allik holati resurslarning uzoq muddat davomida etarli bo‘lmashini avvalgi jamg‘armalar bilan ham, qimmat tovarlarni xarid qilishdan vaqtincha tejash hisobiga to‘plangan mablag‘ bilan ham qoplash imkoniyati mavjud emasligini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotlar natijasida sarhisob qilish shundan dalolat beradiki, “kambag‘allik” tushunchasining iqtisodiy mazmuni insonning moddiy, moliyaviy, ma‘naviy jihatdan eng quyi talab-ehtiyojlarini qondirish imkonini bermaydigan, daromadning yetishmasligi hamda jur‘atsizlik, kuchsizlik va yuqori iqtisodiy ishonchsizlikni keltirib chiqaruvchi, jamiyat a‘zolarining oddiy munosabatlar, hayotiy an‘analar, iqtisodiy faoliyatdan chetlatilgan holatda yuzaga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hisoblanadi. Jamiyatni tashkil etuvchi shaxslar yoki oilalarga tegishli turli resurslarning hajmi o‘rtacha hajmdan anchagina past bo‘lib, haqiqatda bunday jamiyat a‘zolari oddiy munosabatlardan, hayotiy an‘analardan, faoliyatdan chetlatilgan taqdirda kambag‘allik yuzaga keladi.

Davlat doimo kambag‘allik muammosi ustidan o‘zining bosh islohotchilik nazoratini o‘rnatadi. Bu esa jamiyatga nisbatan turli modellar va yondashuvlar nuqtai nazaridan kambag‘allarga bo‘lgan ijobiy munosabatni ifodalaydi. Boshqacha aytganda, davlat hamda nodavlat muassasalarining nazorati tufayli kambag‘allarni ijtimoiy himoyaga olish zarur. Kambag‘allikka oid turli nuqtai nazarlar, asosan, tarixiy meros bilan belgilanadigan va hozirgi kunda jamiyatda dolzarb bo‘layotgan ushbu hodisani tushunish bosqichlarini kuzatishga imkon beradi. Shunga ko‘ra, zamonaviy davrda ishlaydigan va ishlamaydigan kambag‘allarga bo‘linish yoki munosib, noloyiq kambag‘allarga bo‘linish aynan kambag‘allik haqidagi g‘oyalar ta‘sirida shakllangan.

Iqtisodchilarning fikricha, kambag‘allikni bartaraf etishning to‘g‘ri va eng samarali usullaridan biri aholi bandligi darajasini oshirishdir. Aholini ish bilan band etish va ularga munosib, yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish maqsadi, har bir davlat siyosatida o‘ziga xos amalga oshiriladi. Bunday siyosat qamrovida shahar va qishloq joylarida tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar, qulayliklar, biznes yuritish uchun qulay muhit yaratish kerak.

Xulosa qilib aytganda, kambag‘allik jamiyatning rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi illatlardan bo‘lib, kambag‘allik jamiyatni rivojlanishiga, ona zaminning gullab yashnashiga o‘zining noxush tomonlari bilan birgalikda talaygina muammolarni ham yuzaga keltiradi. Ular: birinchidan, davlatning barqaror iqtisodiy o‘shishiga jiddiy to‘sqinlik qiladi; ikkinchidan, jamiyatdagi ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga olib keladi; uchinchidan, migratsiya

1 Mustafaqulov Sh.I., Murodullaev N., Xamidov R. O‘zbekistonda kambag‘allikni aniqlash va qisqartirish davlat siyosati darajasida. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnal. № 1, 2020.



jarayonlarini faollashtiradi; to'rtinchidan, aholining turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatadi; beshinchidan, ta'lim va tibbiy xizmat darajasining pasayishiga olib keladi; oltinchidan, jinoyatchilikning ortib borishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Александров Е.Л., Александрова О.Е. Меры борьбы бедностью: Зарубежный и отечественный опыт. // Ж. Фундаментальные исследования. №9, 2015. С.
2. Беглова Е.И. Бедность как социально-экономическое явление. Автореф. Дисс. На соискан. Ученой степени докт. Экон. Наук. Санкт-Петербург.: 2014. С.
3. Mustafaqulov Sh. (2020). Kambag'allik ayb emas, biroq.... Xalq so'zi, 25.03.2020-yil, № 62 (7564).
4. G'aniev M. X. Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida aholi farovonligini oshirish va kambag'allikni qisqartirish yo'nalishlari dissertatsiya. Toshkent – 2023-yil.
5. Холмирзаев А. Ишимбаев Р. Сущность деятельности малого бизнеса и важность развития. "ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ" международном научно-практическом журнал 7(86) 2021г.
6. Xolmirzaev A. Kambag'allik va unga qarshi kurashish yo'nalishlari. Biznes-ekspert" jurnali. Iqtisodiy ilmiy-amaliy oylik nashr, № 7-son, 2022-yil. 21-25 b.
7. Israelov R. I., Maxsudov B. Y., Tursunov U. S., Xolmirzaev A. X. A Vision of Innovation Management. American Journal of Economics and Business Management, Vol. 3, No. 5, November-December 2020.
8. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo'llash masalalari. Ilmiy monografiya. Toshkent – 2023.
9. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). Innovation faoliyatning moliyaviy ta'minotini kuchaytirish zarurligi va omillari tahlili. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 5(03), 142-146.
10. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). Bilimlar iqtisodiyoti shakllanishining ustuvor yo'nalishlari. Journal of New Century Innovations, 74(2), 65-70.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
